

## AMARANT O`SIMLIGINI YEM-XASHAK UCHUN YETISHTIRISHDA EKISH SXEMASI VA OZIQLANTIRISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Zikiryoyeva Kamola Fayzullo qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Toshkent filiali tayanch doktaranti

**Mardanov Husniddin Xolbazarovich**

Qishloq xo`jaligi fanlari doktori

**Annotation:** Bu maqolada amarant o`simligini yem-xashak uchun yetishtirishda ekish sxemasi va oziqlantirish usullarini ishlab chiqish bo`yicha ilmiy tadqiqotning asosnomasi haqida umumiy taxlil keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** amarant, yetishtirish, oziqlantirish, usu

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabdagisi PF-5853-sonli “O`zbekiston Respublikasini 2020-2030-yillarda qishloq xo`jaligini rivojlantirish strategiyasi”da, shuningdek PQ-4643-sonli “Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini va iste`mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni ta`minlash, qishloq xo`jaligi sohasida tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda foydalanishdan chiqib ketgan yerkarni qayta foydalanishga kiritish vazifalari belgilangan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Toshkent viloyatining tipik bo`z tuproqlarida amarant navlaridan yem xashak yetishtirishda ekish sxemasi va oziqlantirish usullarini qo`llash orqali yuqori hosilli yashil massa ya`ni yem xashak yetishtirish hamda klasterlar va fermer xo`jaliklariga agrotavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning ob`ekti:** Tadqiqot ob`ekti sifatida Marhamat, Oq amarant va Qizil amarant navlari, tipik bo`z tuproqlar tanlanib, tadqiqot predmeti sifatida yem-xashak yetishtirishda ekish sxemasi va oziqlantirish usullarini ishlab chiqish trejallashtirilgan.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Toshkent viloyatining tipik bo`z tuproqlari tuproq-iqlim sharoitlariga mos, jahon talablari darajasidagi yuqori va sifatli hosil beradigan amarant navlarini tanlab olish va shu asosida tajriba tizimini shakllantirish;

- tadqiqotlar olib boriladigan dala maydonlari tuprog`idagi gumus, NPK ning yalpi va harakatchan shakllarini aniqlash hamda tuproqning ta`minlanganlik darajasini hisobga olgan holda o`g`it me`yorlarini belgilash va o`tkaziladigan agrotadbirlar tizimini shunga bog`liq holda olib borish;

- amarant navlarida ChDNSga nisbatan maqbul sug‘orish oldi tuproq namligini aniqlash;
- amarant navlarini yem-xashak uchun yetishtirishda sug‘orish muddatlari, soni, tizimi, davomiyligi, amal davridagi bir martalik va mavsumiy sug‘orish me’yorlarini aniqlash;
- amarant navlarini yem-xashak uchun yetishtirishda ko‘chat qalinligi, suv, oziqa (NPK) me’yorlarini aniqlash;
- suv-oziqqa (NPK) me’yorlari, ko‘chat qalinligining amarantni o‘sish-rivojlanishi va quruq massa to‘plashiga ta’sirini aniqlash;
- suv-oziqqa (NPK) me’yorlari, ko‘chat qalinligining bir dona shingildagi don vazniga ta’sirini aniqlash;
- amarant navlaridan 1 s quruq masa hosili yetishtirish uchun sarflangan suv miqdorini aniqlash;

-tadqiqotlar davomida ijobiy baholangan variantlarda qo‘llanilgan agrotadbirlar tizimi asosida agrotavsiyalar tayyorlash va chop etilgan holda klaster va fermer xo‘jaliklariga yetkazishdan iboratdir.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tanlangan tuproqlar sharoitida turli ekish sxemalaridan foydalanib amarant navlarini ekkanda va har xil oziqlantirish usullarini qo‘llash orqali parvarishlanganda ushbu tadbirlarning amarant navlari o‘sish-rivojlanishi, quruq massa hosildorligiga ta’sirlari o‘rganilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tanlangan tuproqlarda amarant navlaridan yuqori va sifatli yem-xashak hosili yetishtirishda agrotadbirlari tizimi, ya’ni maqbul ko‘chat qalinligi, sug‘orish va oziqlantirish (NRK) tartiblari ishlab chiqilib, amaliyatga joriy etilishi natijasida ushbu amarant navlaridan yem-xashak yetishtirishga erishilishi bilan izohlanadi.

**Т**

a  
d  
q  
i  
q  
o  
t  
n  
i  
n  
g

### Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar



1. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va rne'yoriy hujjatlar to'plarni. 1-2 тоъ. Т. «Sharq •. 1998-у.
  2. Abdullaev X.A O'zbekiston tuproqlari. Т. 1973 у.
  3. Bahodirov M, Rasulov AM. Tuproqshunoslik. Т. • O'qituvchi •. 1975 у.
  4. Boboxo'jaev I. Uzoqov P. Tuproqshunoslik. «Mehnat». Т. 1995 у.
  5. KOBJ1.a B.A OCHOBbI yqeHID1 0 no'IBaX. Т. 1-2. «HayKa» М. 1973.
  - 6". KOBJ1.a B.A, PooaHOB B.f. ITOt[8()BelleHHe. 1-2 qacm. «BblClllasJ. WKOJIa».
- M.1988.
7. KaypH'leB H.C .• ITOTIBOBelleHHeJ «KoJIoc., М., 1989.
  8. L. Tursunov .• Tuproq fizikasi. darslik T.: 1988
  9. JI. Tursunov .• Tuproq fizikasi. darslik T.: 1988
  10. Tuproqshunoslik. Ma'ruza matn1ari. Т. 1999 у.